

QO'QON XONLIGIDA MA'DANIY HAYOT SAMARQAND MA'DANIY
MEROSI

F.B.Xayityova

Nizomiy nomidagi TDPU Dots.v.b.

S.H.Shokirova

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

O'lkamiz davlatchiligi tarixini ilmiy o'rganish va to'plangan tajribalardan ijodiy foydalanish yurtimiz ijtimoiy siyosiy va madaniy ravnaqida muhim ahamiyat kasb etadi. Xozirgi kunda mamlakatimiz tarixining bir qator dolzarb muammolari o'rganishda holisona yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek „Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad muammolari shu bilan birga ,umumbashariy tarqaqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi” shunday ekan o'zbek xonliklaridan Qo'qon xonligida ro'y bergan ijtimoiy siyosiy tarixiy ,madaniy jarayonlarni shuningdek ,xonlikda yashab ijod qilgan mahalliy tarixchi olimlar hayoti va faoliyatlari ,ular tomonidan yaratilgan asarlarni o'rganish ,ilmiy tadqiq etish asosida davlatchiligimiz tarixini yoritish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Qo'qon xonligida markazlashgan davlatning qaror topishi, iqtisodiy hayotning rivojlanishi natijasida moddiy madaniyata jonlandi. Shu asnodan mamlakat poytaxti Qo'qon tez fursatda O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri, ilm –fan va madaniyat o'chog'iga aylandi.

XIX asrda Qo'qon xonligida tabiiy fanlar bilan birga ,ijtimoiy gumanitar fanlar ichida taraixnavislik ham sezilarli ravishda rivoj topdi. Bu borada Abdulkarim Fazliy Namangoniy "SHohnoma", Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy "SHohnomai Umarxoniy ", Xo'ja Muhammad Hakimxonto'ra bin sayid Ma'sumxon "Muntaxab at tavorix», Muhammad Solihxo'ja ibn Qoraxo'ja "Tarixi jadidayi Toshkand, Maxzun Ziyovuddin Xo'qandiy "Shohnoma" va boshqalar salmoqli faoliyat yuritdilar. Ushbu tarixchi olimlar tomonidan nazm va nasrda ,o'zbek va tojik tillarida jahon va mahalliy ,ya'ni Qo'qon xonligi tarixini yorituvchi yuqorida nomlari keltirilgan bir qator nodir asarlar xonlik tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarlarning aksariyati Qo'qon xonligi tarixining boshlanishidan kitob mualliflari yashagan davrgacha bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga olganligi va ularning haqqoniy ,xolisona va izchil bayon qilinganligi bilan ahamiyatlidir.

Jumladan ,Toshkentlik olim Muhammad Solih Toshkandiy 1830-1890 ning Tarixi Jadidayi Toshkand asari ikki jilddan iborat bo'lib ,uning ikkinchi qismi Qo'qon xonligining 15-asr oxiridan 19-asrning 80-yillarigacha bo'lgan ijtimoiy siyosiy madaniy hayotiga oid ma'lumotlar aks ettirilgan .Shuningdek ushbu asarda muallif Toshkent shahri va vohasining tarixi ,geografiyasi ,toponimikasi haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ushbu ma'lumotlar orqali Qo'qon xonligining 15-asr oxiri 19-asr ikkinchi

yarmidagi ijtimoiy –madaniy hayoti haqida,xonlik aholisining turmush tarsi hamda joy nomlari haqida atroflicha tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Xonlikda yashab ijod etgan mashhur tarixchilardan yana biri Muhammad Hakimxonto'ra dastlab Namangan ,To'raqo'rg'on va Kosonsoyda hokim bo'lib ,Muhammadalixon hukmronligining dastlabki yillarida xonlikda shayxulislom lavozimida faoliyat yuritgan.Ammo,keyinchalik u xon g'azabiga duchor bo'lib egallab turgan lavozimidan bo'shatilgan.Muhammad Hakimxonning "Muntaxab ut tavorix " asari 1843-yil 29-mayda yozib tamomlangan.Asarda Qo'qon xonligining asoschisi Shohruxbiy 1709-1721 ning vorisi Abduraximxon zamonidan to Norbo'tabiy ,Olimxon va Umarxon zamonigacha bo'lgan xonlik tarixi bayon etilgan.Shuningdek asarda muallifning Rossiya ,Turkiya,Iroq ,Suriya mamlakatlariga qilgan sayoxatlari ta'ssurolari ham o'rin olgan.

Xususan, Muhammad Hakimxonto'ra "Muntaxab ut tavorix" asarida Volga daryosidan kechib ,Ashtarxon va Shimoliy Kavkaz orqali Qora dengizga borganini bayon qilar ekan ,Turkiya sultonlaridan biri Qora dengizning chuqurligini o'lchatib ko'rganligi haqida ham ma'lumot beradi.Uning o'zi sayoxatlari davomida yaratgan geografik tasvirlari ,o'sha mamlakat xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida keltirgan ma'lumotlari ham diqqatga sazovordir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki ,Qo'qon xonligida aniq va tabiiy fanlar bilan birgalikda,ijtimoiy-gumanitar fanlar xususan tarix ilmi va tarixnavislik ham keng rivojlangan.Qo'qon xonligi tarixnavislik maktabining namoyondalari musulmon tarixshunosligi rivojida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligida mamlakat hukmdorlarining homiyligi bilan XVIII asr oxiri XIX asrning boshlarida ilm-fan madaniyat rivojlanib, bu borada xonlikda tarixnavislik maktabi ham shakllangan.Tarixnavislik maktabi vakillarining hayoti va ijodiy faoliyatlari ,ularning asarlari va ularda qayd etilgan xonlikning ijtimoiy siyosiy madaniy hayotiga oid ma'lumotlarni o'rganish shubhasiz Vatanimizning XVIII, XIX asrlar tarixini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'qon adabiy muhitining samarali ta'siri o'laroq bu yurtidan keyinchalik Muqimiy,Furqat, Zavqiy va boshqa yetuk badiiy so'z san'atkorlari yetishib chiqdilar va o'z xalqining erki,hurligi ozodligi uchun xizmat qildilar.Qo'qon xonligi barcha beklklarida maktab madrasa va qorixonalar mavjud edi.Madrasalarda ham diniy ham dunyoviy fanlar bo'yicha muddarislar dars bergan.Umuman olganda xonlikda adabiyot ,tarix sohalarining salmog'i yuqori bo'lgan.Biz yosh avlod ham ushbu asarlarni o'qib o'sha davr adabiy muhitini tasavvur qilishimiz ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.Shunday ekan bu nodir asarlarni kelajak avlod uchun ham ahamiyati beqiyosdir!